O'zbekiston respublikasi moliya-kredit tizimidagi muammolari va ustuvor yo'nalish istiqbollari	931
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
O'zbekistonning fiskal va monetar siyosati tashqi savdo defitsiti o'sishiga ta'siri	935
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
The accounting system in trade organizations, as well as the classification of income in trade	941
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish omillari va ularning tahlili	947
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING BARQAROR O'SISH OMILLARI VA ULARNING TAHLILI



Ayubov Ilyos Ilxomovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, i.f.f.d., PhD, dotsent

Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, jumladan, investitsiyalar, texnologik taraqqiyot, eksport salohiyati, mehnat bozori holati hamda institutsional islohotlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlar va oldin ilmiy izlnish olib borgan tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlar asosida O'zbekiston iqtisodiy o'sishining hozirgi tendensiyalari baholanadi hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Olib borilgan tahlillar natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish mamlakat uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, texnologik taraqqiyot, eksport salohiyati, mehnat bozori, institutsional islohotlar, barqaror rivojlanish.

Abstract: The stable growth of Uzbekistan's economy is one of the main components of the country's long-term development strategy. This scientific article analyzes the main factors of economic growth, including investments, technological development, export potential, the state of the labor market, and the impact of institutional reforms on economic stability. In the course of the research, based on statistical data and theoretical approaches of researchers who have previously conducted scientific research, the current trends of the economic growth of Uzbekistan are evaluated and suggestions are put forward to ensure sustainable development. The results of the conducted analyzes show that the wide introduction of innovative technologies, improvement of the investment environment and increase of labor productivity are important in ensuring sustainable economic growth for the country.

Key words: Economic growth, investments, technological progress, export potential, labor market, institutional reforms, sustainable development.

Аннотация: Стабильный рост экономики Узбекистана является одной из основных составляющих долгосрочной стратегии развития страны. В данной научной статье анализируются основные факторы экономического роста, включая инвестиции, технологическое развитие, экспортный потенциал, состояние рынка труда, а также влияние институциональных реформ на экономическую стабильность. В ходе исследования на основе статистических данных и теоретических подходов исследователей, ранее проводивших научные исследования, оцениваются современные тенденции экономического роста Узбекистана и выдвигаются предложения по обеспечению устойчивого развития. Результаты проведенного анализа показывают, что широкое внедрение инновационных технологий, улучшение инвестиционной среды и повышение производительности труда имеют важное значение для обеспечения устойчивого экономического роста страны.

Ключевые слова: Экономический рост, инвестиции, технологический прогресс, экспортный потенциал, рынок труда, институциональные реформы, устойчивое развитие.



KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi milliy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu holat avvalo iqtisodiy sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar, innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot va tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash hamda sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadal oshirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat doirasida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli¹ Farmonida qayd etilganidek, yangi taraqqiyot strategiyasi avvalgi bosqichlarda orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda barqaror iqtisodiy o'sish orqali O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar safiga olib chiqish maqsadi belgilangan [1].

Mazkur strategiya va undagi asosiy ustuvor yo'nalishlar O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi va nazorat siyosatining muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bunga qo'shimcha ravishda, jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatining oshirilishi, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ishchi kuchining malakasi va infratuzilma rivoji – bularning barchasi barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, institutsional islohotlar va samarali boshqaruv tizimlari ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi, ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri chuqur o'rganiladi hamda baholanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – iqtisodiy o'sishning tarkibiy qismlarini aniqlash, ularning samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu ilmiy ish O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va istiqbolli strategik yo'nalishlarni belgilashda ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirga qadar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish omillarini o'rganishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar iqtisodiy o'sishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda asosiy mazmunini ochib berishga qaratilgan. Iqtisodiy barqarorlik va o'sish omillarini o'rganishda klassik hamda zamonaviy iqtisodiy maktablarning qarashlari muhim o'rin tutadi.

Masalan, Solou tomonidan 2016-yilda taqdim etilgan ilmiy ishlarda iqtisodiy o'sish nazariyalariga ko'ra, iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari kapital, mehnat va texnologik rivojlanishdan iborat. Neoklassik model doirasida Solou modeli ishlab chiqarish funksiyasi yordamida iqtisodiy o'sishni tushuntiradi. Unda texnologik taraqqiyot asosiy omil sifatida ajratiladi [4, 15]. Taqqoslash uchun endogen nazariyasini olaylik: bu nazariyada iqtisodiy o'sish ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsiyalar orqali rag'batlantiriladi. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, texnologik taraqqiyot uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy manbaidir. Shu sababli, jamg'arma normasining oshirilishi yoki kapital hajmining ko'payishi iqtisodiy o'sishni faqat vaqtinchalik tezlashtiradi, biroq texnologik taraqqiyot bo'lmasa, uzoq muddatli o'sish ta'minlanmaydi.

Yana bir zamonaviy va dolzarb nazariya bu – Romer tomonidan ilgari surilgan endogen o'sish nazariyasidir. Ushbu nazariyada iqtisodiy o'sish ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsiyalar orqali rag'batlantirilishi ta'kidlanadi. Modelga ko'ra, davlat va xususiyl sektor tomonidan ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishish mumkin [5, 17].

Nazariyaning afzalliklari shundan iboratki, u innovatsiyalar va ilmiy taraqqiyotning iqtisodiy o'sishdagi hal qiluvchi rolini asoslaydi, inson kapitali va ta'lim muhimligini ko'rsatadi hamda davlat siyosatining o'sishga ta'sirini ochib beradi. Biroq bu nazariyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, innovatsiyalarni rag'batlantirish uzoq muddat talab qilishi mumkin, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun esa ilmiy-tadqiqot (R&D) xarajatlari yuqori bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu nazariya har bir davlat uchun universal qoida sifatida ishlamasligi, ya'ni innovatsion infratuzilma va moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan bog'liq cheklolarga duch keladi.

Mazkur nazariyani O'zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq etish orqali quyidagi maqsadlar ko'zda tutilishi maqsadga muvofiqdir:

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni rag'batlantirish;
- startap ekotizimini rivojlantirish va xususiyl sektor bilan hamkorlikni kengaytirish;
- intellektual mulk huquqlarini mustahkamlash.

Keyingi iqtisodiy o'sish omillariga oid nazariya va uning samarasini 2020-yilda Abdurahmonov tomonidan olib borilgan izlanishlar misolida ko'rishimiz mumkin. Unda o'rganilgan xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki,

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



bevosita xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni tezlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar hajmi ortib, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va tarmoqlararo innovatsion hamkorlik barqaror o'sishni ta'minlovchi omillar sifatida qayd etiladi [6, 14].

Nazariyaning e'tiborga molik jihatlaridan biri – yangi texnologiyalar va yirik xalqaro kompaniyalar tajribasini jalb qilish orqali ularni milliyalashtirish, har qanday sektorda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ichki bozorga innovatsion g'oyalarni olib kirishdir. Bu esa narxlarning barqarorligini ta'minlash va YalM miqdorini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya bugungi kunda iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, elektron tijorat va raqamli xizmatlar sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanib, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi [7, 13].

Nazariyaning asosiy afzalliklari – raqobatbardoshlikni oshirishi, yangi biznes modellarni shakllantirishi hamda iqtisodiy unumdorlik va samaradorlikni yuksaltirishidir. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani rivojlantirish katta moliyaviy resurs talab etadi va IT mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekani ham inobatga olinishi lozim.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston iqtisodiy o'sishining barqarorligi bir qator omillarga, jumladan, investitsiyalar, innovatsion taraqqiyot, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishi hamda raqamli transformatsiyaga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, iqtisodiy islohotlarning samaradorligi ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida iqtisodiy o'sish omillarining chuqur tahlili va innovatsion yondashuvlarning keng qo'llanilishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot davomida monografik kuzatish, statistik abstraktsiya, mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullarini o'z ichiga olgan ilmiy izlanishlarga tizimli yondashuv keng qo'llanildi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish omillari va ularning tahlilini amalga oshirishdan oldin, biz iqtisodiy o'sishga nimalar ta'sir ko'rsatishini aniqlab olishimiz lozim. Quyida esa izlanish natijasida yig'ilgan statistik ma'lumotlar jadval shaklida keltirilgan(1-jadval):

1-jadval. Mamlakat iqtisodiy o'sish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar².

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	O'zgarish(2020 va 2023-yillar o'rtasida)
YalM (mlrd so'm)	668038	820536.6	995573.1	1204485.4	180.3%
Mehnat resurlari (ming kishi)	19158.2	19334.9	19517.5	19739.6	103.0%
Ishsizlar soni (ming kishi)	1561	1441.8	1332.7	1024.1	66.4 %
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik, mlrd so'm)	210195.1	239552.6	266240	356071.4	169.4 %
Import hajmi (mln \$)	20721.7	24623.2	29452.8	37442	180.7 %
Eksport (mln \$)	14870.6	16269.1	18179.2	22777.8	153.2 %
Inflatsiya (%)	111,14%	109,98%	112,25%	108,77%	97,9%
Aholi turmush darajasi	431182.4	538450.7	654993.3	756084.2	175.4 %

² Manba: "Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy sayti asosida tuzilgan.



Dashtlab, iqtisodiy o'sish samaradorligini aniqlash uchun mamlakat YaIM miqdori hamda uning o'sish sur'atini tahlil qilish muhim. Iqtisodiy o'sish tezligini yillik yoki choraklik dinamikada aks ettiradi. Quyida YaIM miqdorining o'sish sur'atini hisoblash formulasi keltirilgan:

$$GDP_{growth} = \frac{GDP_t - GDP_{t-1}}{GDP_{t-1}} \times 100\%$$

Bu yerda:

GDP_{growth} – YaIM miqdori o'sishi

GDP_t – Joriy davrdagi YaIM miqdori

GDP_{t-1} – Bazis davrdagi YaIM miqdori[11].

Yuqoridagi formulaga asosan YaIM ning yillik o'sish miqdorini hisoblab chiqib quyidagi natijaga erishildi:

Yillar	2020	2021	2022	2023
YaIMning o'sish miqdori	+12.3	+22.8	+21.3	+21.0

2020-yilda YaIMning o'sish sur'ati 112,3 % bo'lgan. Ushbu davrdagi taxminiy sabab esa global pandemiya tufayli dunyo iqtisodiyotida pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda iqtisodiy o'sish davom etganidir. Biroq o'sish nisbatan past bo'lgan, chunki pandemiya sababli ichki va tashqi talab qisqarishi ehtimoli mavjud bo'lgan.

2021-yilda esa +22,8 % ga keskin o'sish kuzatilgan. Bu o'sish ehtimol, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish, investitsiyalar hajmining oshishi va islohotlar natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, tashqi savdo va sanoat ishlab chiqarishi faollashgan bo'lishi mumkin.

2022-yilda YaIM 121,3 % ga o'sgan, ya'ni oldingi yilga nisbatan biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, yuqori o'sish sur'ati saqlangan. Bu iqtisodiy faollikning barqarorligidan dalolat beradi.

2023-yilda esa +21,0 % darajasida o'sish qayd etilgan. Bu 2022-yildagi o'sish sur'atiga juda yaqin bo'lib, iqtisodiy o'sish barqaror tus olayotganini anglatadi.

Ishlab chiqarish omillari samaradorligini hisoblashda "Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi" iqtisodiyotda keng qo'llaniladigan neoklassik ishlab chiqarish modeli bo'lib, uning ilmiy asosi quyidagilarga borib taqaladi. Ushbu funksiya ilk bor 1928-yilda amerikalik iqtisodchi Pol Duglas va matematik Charlz Kobb tomonidan AQSh iqtisodiyotidagi ishlab chiqarish jarayonini modellashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Kobb-Duglas funksiyasi neoklassik iqtisodiy nazariyaning asosiy ishlab chiqarish modellaridan biri hisoblanadi. Bu funksiya ishlab chiqarish omillari – kapital (K) va mehnat (L) o'rtasidagi chekli o'rnini bosish elastikligi 1 ga teng bo'lgan holatni tavsiflaydi. Kobb-Duglas funksiyasi Solou o'sish modeli, TFP (Total Factor Productivity) va boshqa makroiqtisodiy modellar uchun asos sifatida xizmat qiladi [10].

Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi – iqtisodiy o'sishning resurslar (mehnat va kapital) orqali emas, balki texnologik innovatsiyalar orqali ta'minlangan qismini o'lchaydi. Yuqori TFP darajasi iqtisodiyotning texnologik taraqqiyoti va innovatsion rivojlanishini aks ettiradi.

Formula:

$$Y=A \cdot K^{\alpha} \cdot L^{1-\alpha}$$

Bu yerda:

Y – ishlab chiqarish hajmi (YaIM),

A – texnologik taraqqiyot ko'rsatkichi (TFP),

K – kapital hajmi,

L – mehnat resurslari,

α – kapitalning ishlab chiqarishga ta'sir darajasi." [9, 10]

Ushbu formuladan foydalanib bizda YaIM miqdori mavjud bo'lganligi uchun Texnologik Taraqqiyot Ko'rsatkichini quyidagi keltirib chiqarilgan formula orqali hisoblaymiz:

$$A = \frac{Y}{K^{\alpha} \cdot L^{1-\alpha}}$$

Endi ushbu formulaga asosan O'zbekiston Texnologik Taraqqiyot Ko'rsatkichini hisoblab chiqamiz. YaIM miqdori, kapital hajmi va mehnat resurslariga oid ma'lumotlarni 1-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanamiz. α ga oid ma'lumotni esa "Akmal I. Sotvoldiyevning "Kobb-duglas ishlab chiqarish funksiyasi haqida" nomli ilmiy maqolasidagi hisob kitoblari natijasida hosil qilingan taqribiy natijadan belgilab olamiz $\alpha \approx 0,35$ " [8].



2-jadval. Asosiy ko'rsatkichlar.

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023
YalM (mlrd so'm)	668038	820536.6	995573.1	1204485.4
Mehnat resurlari (ming kishi)	19158.2	19334.9	19517.5	19739.6
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik, mlrd so'm)	210195.1	239552.6	266240	356071.4

$$A_{2020} = \frac{Y}{K^{\alpha} \cdot L^{1-\alpha}} = \frac{668038}{210195.1^{0,35} \cdot 19158.2^{1-0,35}} \approx 15,08$$

$$A_{2020} = 15,08$$

$$A_{2021} = 17,59$$

$$A_{2022} = 20,44$$

$$A_{2023} = 22,17$$

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan biz shuni aniqlashimiz mumkinki, 2023-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 33.8% ga oshgan (266240 mlrd so'mdan 356071 mlrd so'mga). Bu esa yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish va avtomatlashtirish darajasining oshganligini ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, mehnat resurslari yildan yilga nisbatan barqaror o'sib bormoqda. Yangi bilim va ko'nikmalarni talab qiluvchi sohalarning rivojlanishi natijasida samaradorlik ortgan bo'lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi, avtomatlashtirish va IT xizmatlarining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan[12]. Davlat tomonidan IT sektorga e'tibor kuchaygani va elektron xizmatlarning rivojlanishi samaradorlikni oshirgan bo'lishi mumkin. Qo'shimcha qilganda O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik va o'rta biznesga e'tibor ortgan. Yangi xorijiy investitsiyalar va sanoat klasterlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam bergan bo'lishi mumkin.

Keyingi iqtisodiy o'sishga yetarlicha ta'sir ko'rsatuvchi omil bu umumiy ishsizlik darajasidir. Bu asosan mehnat bozorining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Iqtisodiy o'sish natijasida bandlikning qanchalik oshganini ko'rsatadi. Ishsizlik darajasini esa quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

Formula:

$$U_R = \frac{U}{LF} \times 100\%$$

Bu yerda:

U_R – Ishsizlik darajasi

U – Ishsizlar miqdori

LF – Ishchi kuchi miqdori.

1-jadvaldagi mehnat resurslariga oid ma'lumotlarga asosan har bir yil uchun ishsizlik darajasini hisoblab chiqamiz:

$$U_{R2020} = \frac{U}{LF} \times 100\% = \frac{1561}{19158.2} \times 100\% = 8.15$$

$$U_{R2020} = 8.15$$

$$U_{R2021} = 7.46$$

$$U_{R2022} = 6.83$$

$$U_{R2023} = 5.19$$

4. Investitsiyalar va kapital hajmi, investitsiyalar YalMga nisbatan (%). Iqtisodiyotda kapital jamg'arish va uning o'sishga ta'sirini ko'rsatadi. Bu orqali investitsiya oqimining qaysi sektorlarga yo'naltirilganini tahlil qilish muhim.

$$\frac{\text{Investitsiyalar}}{\text{YalM miqdori}} \times 100\%$$

$$Yil_{2020} = 31,46\%$$

$$Yil_{2021} = 29,20\%$$

$$Yil_{2022} = 26,74\%$$

$$Yil_{2023} = 29,56\%$$



Xulosa sifatida, mamlakat iqtisodiyotida import va eksport hajmlari ortib bormoqda, ammo importning tezroq o'sishi sababli savdo balansidagi manfiy tafovut kengaymoqda. Kelajakda eksportni ko'proq rag'batlantirish va importni muqobil mahalliy mahsulotlar bilan almashtirish strategiyalari savdo balansini yaxshilash uchun muhim bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi kuzatish va hisob-kitob ishlari natijasida biz quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik:

3-jadval. O'zbekistonning 2020–2023-yillardagi iqtisodiy holati³.

Yillar	2020	2021	2022	2023
YalMning o'sish miqdori	+12.3	+22.8	+21.3	+21.0
Texnologik taraqqiyot ko'rsatkichi (TFP)	15.08	17.59	20.44	22,17
Ishsizlik darajasi	8.15	7.46	6.83	5.19
Investitsiyalar YalMga nisbatan (%).	31.46	29.20	26.74	29.56
Inflatsiya darajasi(%)	111.14	109.98	112.25	108.77
Savdo balansi	-5851.1	-8354.1	-11273.6	-14664.2

Ushbu jadvaldan ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyoti 2020–2023-yillar davomida barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. YalMning yillik o'sish sur'ati 2020-yilda +12,3 % dan, 2021-yilda +22,8 % ga, 2022-yilda esa +21,3 % ga yetdi. 2023-yilda o'sish sur'ati biroz pasayib (+21,0 %) bo'lsa-da, umuman olganda, iqtisodiyot barqaror rivojlanganini ko'rsatadi. Bunday yuqori iqtisodiy o'sish asosan investitsiyalar, texnologik taraqqiyot va ishchi kuchi unumdorligining oshishi bilan bog'liq.

Texnologik taraqqiyot ko'rsatkichi (TFP – Total Factor Productivity) ham barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2020-yilda 15,08 % bo'lgan TFP 2023-yilga kelib 22,17 % ga yetgan. Bu esa iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligining oshib borayotganini hamda innovatsiyalar va texnologik modernizatsiyaning muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Neoklassik iqtisodiy nazariyalarga ko'ra, texnologik taraqqiyot iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, texnologik taraqqiyotning doimiy ravishda o'sib borishi iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun ijobiy omildir.

Savdo balansining salbiyligi eksportni oshirish va importni kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar zarurligini anglatadi. Xususan, mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda eksport diversifikatsiyasini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Umumiy xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin: 2020–2023-yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti sezilarli darajada o'sdi, texnologik taraqqiyot jadallashdi va ishsizlik darajasi pasaydi. Kelgusi yillarda iqtisodiy o'sish foizini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarga ko'proq investitsiyalar yo'naltirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish lozim;

Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish zarur;

Importni kamaytirish va eksportni oshirish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim;

Raqamli iqtisodiyot va yangi bandlik shakllarini rivojlantirish muhimdir;

Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va narxlar barqarorligini saqlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 12.09.2023. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2019). O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti. <https://www.stat.uz>
4. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94.
5. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102.
6. Abdurahmonov, Q. (2020). Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 5(3), 112–130.
7. Xolmatov, O. (2021). Raqamli iqtisodiyot va innovatsion taraqqiyot. O'zbekiston iqtisodiy sharhi, 8(2), 45–59.

3 Manba: Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar Statistika bosh boshqarmasining rasmiy saytidan olingan ma'lumotlarning matematik va statistik hisob kitobi natijasida hosil qilindi.



8. Sotvoldiyev, A. I. (2023). Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi haqida. Journal of New Century Innovations, Avgust. <https://newjournal.org/new/article/view/8408/8124>
9. Karimov, I. A. (2014). O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. Toshkent: O'zbekiston.
10. Karshiyev, A. S., Ulugmurodov, F. F., Karshiyev, A. O. (2024). The Link Between Digital Infrastructure and Economic Growth. International Journal of Artificial Intelligence (IJAI), 4(9), 712–716.
11. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Publishing.
12. Ulugmurodov, F. F., Karshiyev, A. S., Karshiyev, A. O. (2025). Prospects for the Development of Small Business and Entrepreneurship in Industrial Sectors. Procedia on Economic Scientific Research, 1–4.
13. Lucas, R. E. (1988). On the Mechanics of Economic Development. Journal of Monetary Economics, 22(1), 3–42.
14. Romer, P. M. (1986). Increasing Returns and Long-run Growth. Journal of Political Economy, 94(5), 1002–1037.
15. Stiglitz, J. E. (2010). Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy. W. W. Norton & Company.
16. Shavqiev, E., Ulugmurodov, F. F., Rashidov, Z. (2025). Solutions to Problems Arising in Agriculture in Uzbekistan in the Context of the Digital Economy. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development (IJEFS), 7(1), 47–53. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFS/article/view/5358>
17. UNDP. (2021). Digital Economy and Development in Uzbekistan. United Nations Development Programme.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>